

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

XALILOVA NILUFAR AKRAMOVNA

**HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Xalilova Nilufar Akramovna

Hunarmandchilikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari
(Qashqadaryo viloyati misolida)..... 3

Халилова Нилуфар Акрамовна

Региональные особенности развития ремесленничества (на примере
Кашкадарьинской области)..... 25

Khalilova Nilufar Akramovna

Regional features of the development of handicrafts (using the example of
the Kashkadarya region)..... 48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

XALILOVA NILUFAR AKRAMOVNA

**HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.2.PhD/Iqt1387 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Zokirova Nodira Kalandarovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy oponentlar:	Murodova Nodira Qulliyevna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mirzakarimova Muyassar Muminovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent moliya instituti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 1 mart, soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, faks (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz)

Dissertatsiya ishi bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkentshahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, faks (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil __«_____» kuni tarqatildi.
(2024 yil __«_____»dagi -raqamli reyestr bayonnomasi).

X.P. Abulkasimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Q.Q. Mambetjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

A.V. Vaxabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda globallashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotning tarixiy ildizlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hunarmandchilik sohasini rivojlantirish borasidagi islohotlarga ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Mazkur soha hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali iqtisodiy o‘rni ta‘minlashda ishtirok etish bilan bir qatorda, ijtimoiy masalalar, jumladan, aholi daromadlarini oshirish, ayniqsa, bandlikni ta‘minlashga ham hissa qo‘shmoqda. Jumladan, “tahlillarga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotida band bo‘lgan aholining hunarmandchilik sohasiga to‘g‘ri keladigan ulushi Bolgariyada 38 foizni, Ruminiyada 28 foizni, Germaniyada 13 foizni, Avstriyada esa 11 foizni tashkil etadi”¹. Ushbu holat hunarmandchilik sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlardan yanada kengroq foydalanish, aholi daromadlari hamda bandligini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida ham mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Jahonda hunarmandchilik sohasini rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiyot salohiyatidan foydalanish, aholi daromadlari va bandligi darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Hunarmandchilik sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash, uning huquqiy-institutsional asoslarini kengaytirish, hududiy davlat dasturlarini takomillashtirish, hunarmandchilik bo‘yicha hududiy investitsion dasturlar samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish, hunarmandchilik vositasida aholi daromadlarini oshirish hamda ish bilan bandligini ta‘minlashning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish, uzoq muddatli istibollarini belgilashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish kabi masalalar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston hududlarida hunarmandchilikni rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, iste‘mol bozorlarini mahsulot va xizmatlar bilan ta‘minlash, aholi bandligi hamda daromadlari barqarorligi oshirish orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlari tarkibida qator amaliy tadbirlar rejalashtirilgan. Qabul qilinayotgan dasturlarda «milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san‘atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an‘analarini to‘liq saqlab qolish, band bo‘lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta‘minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta‘minlash hududlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi»² sifatida qaralmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun hududlarda hunarmandchilikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga egadir.

¹Абдуллаева Р.Г. Хунармандчилик фаолиятини тадбиркорликни кенгайтириш орқали ривожлантиришнинг назарий асосларини тақомиллаштириш. Иқт. фан. фал. док. дисс. автореф. Тошкент – 2019. 54 б.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4539-son qarori, 28.11.2019 y. <https://lex.uz/docs/4622088>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-son «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandchilikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3393-son ««Hunarmand» uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777-son ««Har bir oila – tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida», 2019 yil 24 oktyabrdagi PQ-4498-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019 yil 28 noyabrdagi PQ-4539-son «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021 yil 20 dekabrdagi PQ-55-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 30 avgustdagi PQ-366-son “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqalarni rivojlanishini, barqaror iqtisodiy o‘shishini ta‘minlash, hunarmandchilikni nazariy asoslari D. Robert, M. Veber, J. Taylor, R. Nallari, V. Dobes, J.T.Armstron³ kabilarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Mintaqalarni mamlakatlari olimlardan G.P. Yermoshina, V.Ya. Pozdnyakov, M.I. Tugan-Baranovskiy, L.I. Abalkin, hunarmandchilikni rivojlanishining tashkili-xuquqiy asoslari, marketing strategiyalari M.A. Rumyanseva, D.Ye. Gavrilov, D.A.Volkovlar, Ye.V. Korchagina, V.A. Korolev, A.P. Paxritsina,

³ Robert, D. Hisricch. Entrepreneurship and small business research – a European perspective. Journal of Small Business and Enterprise Development. Vol. 9 Issue 2. June 2002. – p. 172-222, Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма: избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. – с. 50-52; Armstrong, J. Taylor. Regional economics and policy. 3rd edition. Willey Blackwell Publisher, 2010. – 448 p.; Nallari, R., et al. (2010). A Primer on Policies for Jobs. The World Bank.; Ademola, O.J. (2014). Working capital management and profitability of selected quoted food and beverages manufacturing firms in Nigeria. European Journal of Accounting Auditing and Finance Research, 2(3). 10-21.; Dobes, V., Fresner, J., Krenn, C., Rinaldi, C., Cortesi, S., et al. Analysis and exploitation of resource efficiency potentials in industrial small and medium-sized enterprises – Experiences with the EDIT Value Tool in Central Europe. Journal of Cleaner Production. Volume 159, 15 August 2017, Pages 290-300.; Armstrong, J. Taylor. Regional economics and policy. 3rd edition. Willey Blackwell Publisher, 2010. – 448 p.

I.V. Ryazanseva⁴ kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mahalliy iqtisodchilar H.P. Abulqosimov, I.S. Abdullayev, T.J. Raximovlar⁵ tadqiqot ishlarida miktaqalarda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni, uy xo'jaliklarni rivojlantirish yo'llari tadqiq etilgan. R.G. Abdullayeva, M.O. Pardayeva, F.A. Norqobilovalar tomonidan mamlakatda hunarmandchilik sohasining rivojlanish tendensiyalari, milliy iqtisodiyotda hunarmandchilik sohasining tutgan o'rni va uni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlashda hunarmandchilik sohasining tutgan o'rni, ushbu sohadagi mavjud muammolari va ularni hal etish yo'nalishlariga bag'ishlangan nazariy-amaliy masalalar kompleks tarzda, tizimli, maxsus ob'ekti sifatida tahlil etilmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili hunarmandchilik sohasining mintaqaviy darajada rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlash, hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan davlatning investitsion dasturlari samaradorligini baholash, davlat tomonidan hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotda yetarlicha o'rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakat mintaqalarida hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁴ Ермошина Г.П., Поздняков В.Я. Региональная экономика: Учеб. пособие. – М.: Инфра-М. 2011. – с. 196; Туган-Барановский М.И. Социальные основы кооперации. – М.: Юрайт, 2016. – с. 344-367; Экономическая энциклопедия / под ред. Л.И. Абалкина. М.,– 1999. с. 678-679; Экономическая энциклопедия / под ред. А.М. Румянцева. М.,– 1975. с. 490; Гаврилов Д.Е. Теоретические основы развития ремесленной деятельности. Теория и практика общественного развития №3, 2002. – с. 311-313; Волков Д.А. Стадии и жизненные циклы развития семейного бизнеса // Российское предпринимательства, 2011, вып. 2, с. 11-16.; Корчагина Е.В. Исследования семейного бизнеса в России: подходы к определению и концептуальные особенности. Journal of Economic Regulation (Вопросы регулирования экономики) Том 6, № 4. 2015. – с. 37-45; Королев В.А. Российский собственник на 20 летнем горизонте: Структура собственности, роль семьи и корпоративное управление // Российский журнал менеджмента № 5 (3), 2007. – с. 145-174.; Пахрицина А.П. Управление развитием организаций народной художественных промыслов в регионе. Дисс. уч. степ. канд. экон. наук. – Нижний Новгород, 2004. – 188 с. Рязанцева И.В. Маркетинговая деятельность в сфере ремесленничества: на примере народных художественных промыслов. Автореф. дисс. уч. степ. канд. экон. наук. М.: АГС, 2007. – 24 с.

⁵ Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тadbirkorликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: “Университет”. 2015. – 125 б.; Абдуллаев И.С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишнинг механизмларини такомиллаштириш. Икт. фан. доктори (DSc) дисс. автореф., Тошкент – 2017. 66 б.; Рахимов Т.Ж. Худуд иқтисодий тизимини барқарор ривожлантиришни эконометрик моделлаштириш. Икт. фан. фалсафа док. (PhD) дисс. автореф., Урганч – 2021. 57 б.; Абдуллаева Р.Г. Хунармандчилик фаолиятини тadbirkorликни кенгайтириш орқали ривожлантиришнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Икт. фан. фал. док. дисс. автореф. Тошкент – 2019. 54 б.; Пардаева М.О. Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тadbirkorликни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари. Икт. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. Самарқанд, 2020 й. – 32 б.; Норқобилова Ф.А. Миллий иқтисодиётда хунармандчиликни рақамлаштиришнинг ташкилий иқтисодий механизминини такомиллаштириш. Икт. фан. фал. док. дисс. автореф. Урганч – 2022. 60 б.;

hunarmandchilikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va uning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash;

mamlakatda hunarmandchilikni rivojlantirish orqali iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashning mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish;

hunarmandchilikni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasini qiyosiy taqqoslash asosida ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekiston hunarmandchilik sohasida aholi bandligini ta'minlashning huquqiy-institutsional asoslarini tahlil qilish;

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasining rivojlanish tendensiyalari tahlili va mavjud muammolarini aniqlash;

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasida aholi bandligini rag'batlantirishga qaratilgan hududiy investitsion dasturlar samaradorligi holatini tahlil qilish asosida ularni takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha hududiy davlat dasturlarini takomillashtirish;

uzoq muddatli istiqbolda Qashqadaryo viloyati hunarmandchilik sohasida aholi bandligini ta'minlashning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi, jumladan, Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan hunarmandchilik sub'ektlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini hunarmandchilikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "mintaqaviy hunarmandchilik" tushunchasi biron bir mamlakat yoki mintaqa chegaralarida joylashgan, tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-geografik, madaniy-ma'muriy jihatdan yagona boshqaruv tizimiga ega bo'lgan hududdagi an'analar, qadriyatlar va ma'lum bir ixtisoslashuv bo'yicha qo'l mehnati va ijodiy faoliyatning uyg'unlashuviga asoslangan holda aholiga mustaqil ravishda o'z daromadlarini shakllantirish imkonini beruvchi mahsulot ishlab chiqarish sohasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

mintaqalarda hunarmandchilikni rivojlantirishda mahalliy budjet, budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan "hunarmand usta", "katta hunarmand usta" kabi hunarmandchilik maqomlarini joriy etish hamda "yosh hunarmandlar" bo'limini shakllantirishni moliyaviy rag'batlantirish taklifi asoslangan;

hududlarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro onlayn savdo maydonlariga joylashtirish, reklama va targ'ibot jarayonlari orqali jahon bozoriga olib chiqish, tegishli o'quv kurslari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy markazlarni tashkil etish taklifi asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hunarmandchilik bilan band bo'lgan aholi ulushi dinamikasining inersion, bazaviy va mobilizatsion ssenariylarga asoslangan 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hunarmandchilik sohasida aholi bandligini ta'minlashni xalqaro hamkorlik, hududiy ixtisoslashtirish tizimini o'z ichiga qamrab olgan "Zamonaviy hunarmand" davlat dasturida "Freelanser" elektron platformasini tashkil etish taklifi asoslangan;

hunarmandchilikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etilib, uning mintaqaviy xususiyatlari aniqlangan;

hunarmandchilikni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasini qiyosiy taqqoslash asosida ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasining rivojlanish tendensiyalarini baholangan va mavjud muammolari aniqlangan, hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha hududiy davlat dasturlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Hunarmandchilik uyushmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uslubiy ahamiyatga molik ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan hunarmandchilikni rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish, jumladan, aholi bandligini oshirishga oid nazariy va ilmiy-uslubiy apparatni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiy va moliya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Markaziy bank, va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Mintaqaviy iqtisodiyot», «Makroiqtisodiyot» fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hunarmandchilikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlaridan samarali foydalanish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "mintaqaviy hunarmandchilik" tushunchasini biron bir mamlakat yoki mintaqa chegaralarida joylashgan, tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-geografik, madaniy-ma'muriy jihatdan yagona boshqaruv tizimiga ega bo'lgan hududdagi an'analar, qadriyatlar va ma'lum bir ixtisoslashuv

bo'yicha qo'l mehnati va ijodiy faoliyatning uyg'unlashuviga asoslangan holda aholiga mustaqil ravishda o'z daromadlarini shakllantirish imkonini beruvchi mahsulot ishlab chiqarish sohasi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlarining 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 2023 yil 28 dekabrda 4-sonli qarori). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o'quv yurtlari talabalarida hududdagi an'analar, qadriyatlar va ma'lum bir ixtisoslashuv bo'yicha qo'l mehnati va ijodiy faoliyatning uyg'unlashuviga asoslangan holda aholiga mustaqil ravishda o'z daromadlarini shakllantirish imkonini beruvchi mahsulot ishlab chiqarish sohasi sifatidagi mintaqaviy hunarmandchilik tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkonini yaratilgan;

mintaqalarda hunarmandchilikni rivojlantirishda mahalliy budjet, budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan "hunarmand usta", "katta hunarmand usta" kabi hunarmandchilik maqomlarini joriy etish hamda "yosh hunarmandlar" bo'limini shakllantirishni moliyaviy rag'batlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Hunarmandchilik uyushmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarori bilan "2022 yilda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Hunarmandchilik uyushmasining 2022 yil 24 dekabrda 02-14/1749-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatda 15 mingdan ortiq yoshlarni hunarmandlarga shogirdlikka jalb qilish imkonini yaratilgan;

hududlarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro onlayn savdo maydonlariga joylashtirish, reklama va targ'ibot jarayonlari orqali jahon bozoriga olib chiqish, tegishli o'quv kurslari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy markazlarni tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Hunarmandchilik uyushmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarori bilan "2022 yilda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Hunarmandchilik uyushmasining 2022 yil 24 dekabrda 02-14/1749-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hunarmandchilik mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish, sotish xajmini ortishiga va «Amazon», «Ebay» va «ETSY» kabi xalqaro onlayn savdo maydonlariga joylashtirish imkonini yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hunarmandchilik bilan band bo'lgan aholi ulushi dinamikasining inersion, bazaviy va mobilizatsion ssenariylarga asoslangan 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "2023-2030 yillar uchun aholini mehnat bilan

bandligi darajasini oshirish strategiyasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi 2022 yil 21 dekabrda 01/00-03/19-11579-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, mobilizatsion prognoz ko‘rsatkichlariga ko‘ra, o‘rta muddatli istiqbolda Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasida band bo‘lgan aholi ulushi 2022 yilga nisbatan 23,2 foizga, inersion ssenariy bo‘yicha 11,1 foizga, mobilizatsion ssenariy bo‘yicha 35,4 foizga ortishi mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqot ishining «**Mintaqada hunarmandchilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlashning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida mintaqalarda hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy qarashlar tahlil etilib, mintaqaviy hunarmandchilikning mohiyati yoritilgan, mamlakatimiz hududlarida hunarmandchilik sohasini aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rni aniqlangan va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil etilgan. Jumladan, hunarmandchilik sohasini rivojlantirishning ilg‘or, boy xorij amaliyoti qiyosiy taqqoslanib, ulardan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mintaqaviy hunarmandchilikni nazariy asoslarini tahlil qilishda avvalo “mintaqa” iqtisodiy kategoriyasining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchining fikricha, “hunarmandchilik – bu uzoq yillar mobaynida jamiyat turmush tarzi, uning an’analari va qadriyatlarini asosida insonlarning qo‘l mehnati va ijodiy faoliyatining uyg‘unlashuviga asoslangan holda iqtisodiy

manfaat ko‘rish maqsadida ma’lum bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishning mustaqil sohasi”⁶ hisoblanadi.

“Mintaqaviy hunarmandchilik – bu biron bir mamlakat yoki mintaqa chegaralarida joylashgan, tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-geografik, madaniy-ma’muriy jihatdan yagona boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan hududdagi an’analar, qadriyatlar va ma’lum bir ixtisoslashuv bo‘yicha qo‘l mehnati va ijodiy faoliyatning uyg‘unlashuviga asoslangan holda aholiga mustaqil ravishda o‘z daromadlarini shakllantirish imkonini beruvchi mahsulot ishlab chiqarishning sohasi” deb ta’riflash mumkin. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hunarmandchilik kichik va o‘rta biznes yuritish shaklida rivojlanib kelmoqda (1-jadval). Germaniya xizmat ko‘rsatish sohasida kichik nonvoyxonalar, qandolatchilik sexlari va maishiy texnika ta’mirlesh ustaxonalari ko‘pincha hunarmandchilik korxonasi maqomiga ega. Ishlab chiqarish sohasida hunarmandlar odatda kichik va o‘rta korxonalar shaklida tashkil etiladi.

1-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o‘rta biznes shaklida tashkil etilgan hunarmandchilik korxonalari tarkibiy ko‘rsatkichlari⁷

Me‘zonlar	Hunarmandchilik korxonalari turi		
	Mikro	Kichik	O‘rta
Yollanma hodimlar soni	9 tagacha	10-49 tagacha	50-250 tagacha
Maksimal yillik aylanma kapital hajmi	–	–	50 mln. Yevro
Korxonaning maksimal balansi hajmi	2 mln. yevro	2-10 mln. yevro	10-43 mln yevro

Hunarmandchilik rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan maqsadli dasturlarda sohani rivojlantirishning xorijiy mamlakatlarning quyidagi amaliyotlaridan ijodiy foydalanish mumkin:

- hunarmand ustalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda “hunarmand usta”, “katta hunarmand usta” kabi hunarmandchilik maqomlarini berish orqali hunarmandchilik sub’ektlari faoliyati samaradorligiga baho berish;

- hunarmandchilikni xuquqiy maqomi va hunarmandlarning manfaatlarini himoya qilish uchun “Hunarmandchilik to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish;

- “Hunarmandchilik uyushmasiga” a‘zo bo‘lgan hunarmandlarning yagona ro‘yhatini shakllantirish hamda ushbu ro‘yxatda usta-xunarmadlarni alohida ko‘rsatish zarur;

- hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha respublika hududlarida ixtisoslashuvni amalga oshirish;

- hududlar kesimida hunarmandchilik bo‘yicha ixtisoslashuvdan kelib chiqqan holda mintaqaviy hunarmandchilik tarmog‘i uchun mahalliy budjet hisobidan

⁶ Mualliflik ta’rifi.

⁷ Малый бизнес: от ремесла к инновациям. Нефинансовая поддержка малого и среднего бизнеса. Отчет USAIDMEP в соответствии с утверждением дополнительным Планом по реализации подкомпонента 2.2. «Дорожная карта бизнеса 2020». [Электронный ресурс]. 34 стр. маълумотлари асосида тузилган. <https://atameken.kz/uploads/content/files>

subsidiya va dotatsiyalar ajratish bilan birgalikda, ular faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha imtiyozlarni kengaytirish;

- milliy hunarmandchilikni rivojlantirish jamg‘armalarini tashkil etish;

- mintaqaviy hunarmandchilik uyushmalarida “yosh hunarmandlar” bo‘limini shakllantirish orqali hududlardagi iqtidorli hunarmand yoshlarni birlashtirish va mahalliy budjet yoki hunarmandchilikni rivojlantirish jamg‘armalaridan moliyaviy ko‘mak berish maqsadga muvofiq.


Dissertatsiya ishining «**Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasida aholi bandligini ta‘minlashning mintaqaviy xususiyatlari tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari tahlil etilgan, viloyat mehnat bozorida aholi bandligini ta‘minlashda hunarmandchilik sohasining rivojlanish tendensiyalari aniqlangan, hozirgi holati baholangan va uning samaradorligi ko‘rsatkichlarini tahlil etish asosida mavjud muammolar aniqlangan.

Mamlakatimiz hududlarini hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashtirishda har bir hududning o‘ziga xos madaniy merosi, yashash shart-sharoitlari va hunarmandchilik sohasini rivojlantirish imkoniyatlariga asoslanilganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz shahri kashtachilik, Kasbi tumani chinni, fayans va sopol buyumlari, Chiroqchi tumani esa qo‘lda gilam to‘qish bo‘yicha hunarmandchilik yo‘nalishlariga ixtisoslashtirilgan holda, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Polsha, Eron respublikalaridagi mamlakatimiz elchixonalariga biriktirilgan.⁸ Ushbu holat hududlarda hunarmandchilik bo‘yicha ixtisoslashuv bilan birgalikda, ularda ishlab chiqarilayotgan hunarmandchilik mahsulotlarini namoyish qilish va sotishda xorijiy mamlakatlarning biriktirilishi xorijiy turistlarni mamlakatimiz hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga olib keladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanilgan holda, quyida keltirilgan 2-rasmda mamlakatimiz hududlarini hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish va mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini «Amazon», «Ebay» va «ETSY» kabi xalqaro onlayn savdo maydonlariga joylashtirish, reklama va targ‘ibot qilishlariga olib chiqish bo‘yicha shakllangan mexanizmi shakllantirildi. Unga ko‘ra, hududlar kesimida hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashtirish dasturlari mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilib, hudud aholisi, ayniqsa, ishsiz yoshlar, ayollar va kam ta‘minlangan oilalarni ushbu sohaga jalb qilishga qaratilgan ishlar amalga oshiriladi. Shu bilan birganlikda, davlat mutasaddi tashkilotlari, ya‘ni, Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, «Hunarmand» uyushmasi, Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan hududlarda ishlab chiqarilayotgan hunarmandchilik mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi. Bunda hunarmandchilik

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4539-son Qaroriga 1-ilova, 28.11.2019 y. <https://lex.uz/docs/4622088>

mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarda namoyish qilish va sotish ishlarida hunarmandlarga yaqindan yordam ko‘rsatish nazarda tutilgan bo‘lib, tegishli xorijiy mamlakatda ma‘lum bir hunarmandchilik mahsulotini namoyish qilish yoki sotishda avvalo ushbu mamlakatning mazkur hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishi, mamlakatimiz hududlari aholisi bilan madaniy jihatdan o‘zaro yaqinlik holatlari inobatga olinishi talab etiladi.



2-rasm. O‘zbekiston hududlarini hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish⁹

Tahlillar ko‘rsatishicha, Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilikning asosan 7 ta yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan usta hunarmandlar tomonidan (2-jadval) 2017-2022 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan 2022 yilda 2017 yilga nisbatan tayyorlanayotgan mualliflik mebellarini tayyorlash mahsulot qiymati xajmi 1,8 barovarga, milliy liboslar tayyorlash 2,0 barovarga, metaldan yasalgan buyumlar tayyorlash 1,8 barovarga, gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar tayyorlash 2,8 barovarga, chinni, fayans va sopol buyumlar tayyorlash 1,8 barovarga, qimmatbaxo metaldan yasalgan zargarlik buyumlarini tayyorlash 1,9 barovarga, yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini tayyorlash 2,6 barovarga ortgan.

Hududlarda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun shakllantirilgan ‘‘Hunarmandchilik markazlari’’ ahamiyati tobora ortib bormoqda. Markazga tashrif buyuradigan chet ellik mehmonlarning hunarmandchilik mahsulotlarini yaratilish jarayoni bilan chuqur tanishishlari uchun sharoit yaratilgan. Shuningdek, bu markazlar yoshlarni hunarga o‘rgatuvchi o‘quv markazlari rolini ham bajarib kelmoqdalar.

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilikda 2017-2022 yillarda ishlab chiqarilgan maxsulotlar xajmining dinamikasi¹⁰

Yo'nalish nomi	Ustalar, maxsulot, qiymati	2017 yil	2021 yil	2022 yil	O'zgarishi, %da
1. Mualliflik mebellarini tayyorlash	Ustalar soni	69	102	150	217,3
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	1997	2750	3768	188,7
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	5480	9986	17975	328,0
2. Milliy liboslar tayyorlash	Ustalar soni	157	411	662	421,5
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	12699	30020	49833	392,4
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	1879	3819	5156	274,4
3. Metaldan yasalgan buyumlar	Ustalar soni	121	266	388	321,0
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	4244	6532	8818	207,8
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	3724	5947	8326	223,6
4. Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar	Ustalar soni	281	541	736	261,8
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	31614	89450	120758	382,0
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	4185	7616	10282	245,7
5. Chinni, fayans va sopol buyumlar	Ustalar soni	5	21	29	580,0
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	2425	4390	5927	244,4
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	2253	4156	5611	249,0
6. Qimmatbaxo metaldan yasalgan zargarlik buyumlari	Ustalar soni	32	53	72	223,6
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	2808	6032	8143	290,0
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	12591	23904	32270	256,3
7. Yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi maxsulotlari	Ustalar soni	181	170	230	126,8
	Ishlab chiqarilgan maxsulot (ta)	24089	36044	48659	202,0
	Maxsulot qiymati (mln.so'm)	1288	3322	4485	348,2

Ko'p markazlar turistik yo'nalishlarga yaqin joylarga qurilgan va yillar mobaynida turistlar kelishlari uchun ularda sharoitlar yaratilgan. 2016 yilgacha uchta viloyatda Samarqand, Toshkent va Marg'ilonda hunarmandchilik markazlar faoliyat olib borgan. 2017 yildagi jami 17 ta markaz qurilgan bo'lsa, 2020 yildan keyin yana 31 ta markaz qurilib, ishga tushirildi. Jumladan respublikadagi 9 ta hududda "Hunarmandchilik markazlari"ni tashkil etish uchun jami 57,15 mlrd so'm mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, ularning ishga tushirilishi natijasida 1883 ta yangi ish o'rinlarini yaratilishi belgilangan. Bu o'z navbatida hunarmandlarning milliy mahsulotini jahon bozoriga olib chiqishda katta xissa qo'shadi.

2021-2022 yillarda respublika hududlari, jumladan, Qashqadaryo viloyatining tuman va shaharlarining hunarmandchilikni o'sish nuqtalari, ya'ni drayver sohalari belgilab berildi (3-jadva). Ushbu davlat dasturiga muvofiq, viloyatning aksariyat tuman va shaharlarida hunarmandchilik faoliyati drayver soha sifatida aholi bandligi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanganligini kuzatishimiz mumkin.

¹⁰ Hunarmandchilik uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2021-2022 yillarda Qashqadaryo viloyati tuman va shaharlarining o‘shish nuqtalari¹¹


T/r	Tuman vashaharnomi	O‘shishnuqtalari
1.	G‘uzor tumani	Kashtachilik, yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi
2.	Dehqonobod tumani	Gips va ganchdan buyumlar yasash, tosh va tosh mahsulotlaridan yodgorlik (tog‘oldihududlarda),
3.	Kasbi tumani	Yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, to‘qimachilik, kulolchilik, o‘yinchoqlar
4.	Kitob tumani	Suvenir va dekorativ buyumlar tayyorlash, oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan taqinchoqlar, miniatura, rang-tasvir, naqqoshlik va bo‘yoqli naqshlar
5.	Koson tumani	Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar, metallardan yasalgan buyumlar
6.	Qamashi tumani	Kashtachilik, gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar
7.	Qarshi tumani	To‘qimachilik, qo‘lda gilam to‘qish, kashtachilik, zardo‘zlik buyumlari
8.	Mirishkor tumani	Kashtachilik, gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar
9.	Muborak tumani	Yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, charm mahsulotlari
10.	Nishon tumani	Charm mahsulotlari, yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari
11.	Chiroqchi tumani	Gips va ganchdan buyumlar yasash, tosh va tosh mahsulotlaridan yodgorlik
12.	Shahrisabz tumani	Yog‘ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, to‘qimachilik, kulolchilik,
13.	Yakkabog‘ tumani	Suvenir va dekorativ buyumlar tayyorlash, oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan taqinchoqlar,
14.	Shahrisabz shahri	Milliy poyabzal tayyorlash, hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar
15.	Qarshi shahri	Charm-poyabzal, qimmatbaho metaldan yasalgan zargarlik buyumlari

Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda hunarmandchilik sub’ektlarining faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha eng ko‘p hududlar Qarshi, Shahrisabz shahrida, Kitob, Qamashi tumanlari hisoblanadi. Muallifning fikricha, Qarshi, Shahrisabz shahrida, Kitob, Qamashi tumanlari “Hunarmandchilik markazini”, “Kasbi hunarmandlar markazi” faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Qashqadaryo viloyatida Shaxrisabz shahrida tarixiy, qadimiy shaharlardan, hunarmandchilik rivojlangan hududlardan hisoblanadi. Shunga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida Shaxrisabz shahrida “Hunarmandchilik markazini”, “Kasbi hunarmandlar markazi” faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish asosida aholini hunarmandchilikka keng jalb qilish imkoniyati mavjud.

Qashqadaryo viloyatida Qarshi, Shahrisabz shahrida, Kitob, Qamashi tumanlarida ishsizlikni yuqoriligini hisobga olgan holda ishsizlarni kulolchilik, tosh va tosh mahsulotlaridan yodgorlik, souvenir va dekorativ buyumlar tayyorlash, gips va ganchdan buyumlar yasash kabi hunarlarga “Hunarmandchilik”, “Kasbi

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2021-2022 yillarda Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish va infratuzilmani yanada yaxshilashga doir tezkor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 479-son qarori, 02.08.2021

hunarmandlar” markazlarida kasb-hunarga davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar hisobiga 3-rasmda keltirilgan tartibda o’rgatishni tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.



3-rasm. Qashqadaryo viloyatida ishsizlik yuqori bo’lgan hududlarda markazlar faoliyatini tashkil etish yo’nalishlari¹²

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilikni rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning aholi bandligi ko’rsatkichiga ta’sirini baholashda elastiklik koeffitsiyentini hisoblab chiqildi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida viloyatda hunarmandchilik sohasida amalga oshirilgan investitsion loyihalar hajmi omil ko’rsatkich (X) sifatida olinib, natijaviy ko’rsatkich sifatida hunarmandchilik sohasidagi bandlar soni ko’rsatkichi tanlab olindi. Tanlangan ko’rsatkichlar ikki xal birlikda bo’lganligi sababli, har bir ko’rsatkichning avvalgi yilga nisbatan o’sish tendensiyalariga asoslanildi. Amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari 6-jadvalda keltirib o’tildi.

Tahlillarga ko’ra, 2001-2022 yillarda Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalar hajmining o’rtacha yillik o’sish tendensiyasi 124,2 foizga teng bo’lgan bo’lsa, sohada faol holatdagi hunarmandchilik korxonalarini sonining yillik o’rtacha o’sish tendensiyasi 106,5 foizga teng bo’lganligi aniqlandi. Tahlillar ko’rsatishicha, Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga yo’naltirilgan investitsiyalar hajmi 1,0 foizga ortganda, ushbu sohada band bo’lgan aholi soni 0,86 foizga ortganligi aniqlandi. Ushbu holat viloyatda hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning aholi bandligini oshirishga ta’siri sezilarli darajada ekanligini anglatadi (4-jadval).

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik sohasida aholi bandligini ortishiga investitsion loyihalarning ta'siri¹³

Yillar	Hunarmandchilik faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, mln. so'mda (X)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda hunarmandchilik sohasida band bo'lganlar ulushi, foizda (Y)	(X) omilning avvalgi yilga nisbatan o'sish tendensiyasi	(Y) ko'rsatkichning avvalgi yilga nisbatan o'sish tendensiyasi
2001 y	394,2	2,8	–	–
2002 y	585,2	2,9	148,5	103,6
2003 y	735,7	3,2	125,7	110,3
2004 y	885,9	3,0	120,4	93,8
2005 y	994,3	3,0	112,2	100,0
